XALQ DEPUTATLARI BO’KA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-avgust VI-97-87-10-137-K/24 Bo’ka tumani

Bo‘ka tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning yakuniy natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Bo‘ka tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastr agentligining 2024-yil 4-apreldagi Toshkent viloyati hokimligiga yuborilgan 03/08-3236-sonli hamda Respublika aerogodeziya markazining 2024-yil 3-iyuldagi Bo‘ka tumani hokimligiga 01-1194-sonli xatlari orqali yuborilgan tumanning ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlari inobatga olinsin.

3. Bo‘ka tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil 27-iyuldagi 02-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Bo‘ka tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilgan materiallarga asosan Bo‘ka tumani bilan chegaradosh bo‘lgan Oqqo‘rg‘on, Piskent va Bekobod tumanlari o‘rtasidagi chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman ma’muriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizig‘i hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yo‘l va boshqa tabiiy va sun’iy obyektlar) saqlab qolinishi bo‘yicha Kadastr agentligining tuman bo‘limi boshlig‘i A.Maxkamovga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashidan so‘ralsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha” doimiy komissiyasi (S.Fozilov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

BEGMATOV
BAXTIYOR
PAXRIDDINOVICH

Xalq deputatlari Bo’ka tumani
Kengashining
2024-yil 26-avgustdagi
VI-97-87-10-137-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati Bo‘ka tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining
T A V S I F I

Sirdaryo viloyati hamda Oqqo‘rg‘on, Bo‘ka tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, Sirdaryo daryosi o‘zanida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°39'57,505", sharqiy uzoqlik koordinatalari 68°57'43,512").*

A dan B gacha Oqqo‘rg‘on tumani yerlari bilan 1 - 25 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig‘i Sirdaryo daryosi o‘zanidan daryoni kesib o‘tib shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 177 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lni kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°40'02,094", sharqiy uzoqlik 68°57'48,032").*

2-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan ariqqa o‘tadi va shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 736 metr masofani o‘tib “Gijgen” arig‘iga tutashadi, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1059 metr masofani o‘tib, so‘ng umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1595 metr masofani o‘tib, so‘ngra ariqni kesib o‘tib hovuz bo‘ylab umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 143 metr masofani o‘tib, keyin hovuz bo‘ylab umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 136 metr masofani o‘tib zovurga tutashadi, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 919 metr masofani o‘tib avtomobil yo‘liga tutashadi, so‘ngra yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 32 metr masofani o‘tib, keyin yo‘lni kesib o‘tib zovurga tutashadi va umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 136 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi, so‘ng to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 19 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 487 metr masofani o‘tib, so‘ngra yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-

sharqiy yo‘nalishda 1009 metr masofada A-373 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°42'16,637", sharqiy uzoqlik 69°00'33,436").*

3-nuqtadan chegara chizig‘i A-373 avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 519 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 36 metr masofada yo‘lni kesib o‘tib ariqqa tutashadi, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 762 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 363 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1216 metr masofada A-373 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib zovurga tutashadi, keyin umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 954 metr masofani o‘tib, so‘ng umumiy sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 502 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi, so‘ngra dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 185 metr masofada zovurga tutashadi, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 612 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°43'19,029", sharqiy uzoqlik 69°03'47,419").*

4-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1914 metr masofani o‘tib “Pastki Xon” arig‘i va dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°44'21,013", sharqiy uzoqlik 69°03'46,612").*

5-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1043 metr masofani o‘tib, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 181 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°44'40,997", sharqiy uzoqlik 69°04'24,227").*

6-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan “Qorasuv” kanaliga tutashadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 874 metr masofani o‘tib, keyin kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1841 metr masofani o‘tib, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 200 metr masofani o‘tib, so‘ngra kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1159 metr masofani o‘tib, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2047 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°45'09,012", sharqiy uzoqlik*

69°01'30,368").

7-nuqtadan chegara chizig‘i “Qorasuv” kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 58 metr masofani o‘tib, hovuzga tutashadi va hovuz bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 112 metr masofada zovurga o‘tadi va janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovur suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 220 metr masofani o‘tib, Qorasuv kanaliga tutashadi, so‘ng kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 421 metr masofa o‘tib, so‘ngra kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 119 metr masofani o‘tib, keyin ariqni kesib o‘tib zovurga tutashadi va zovur bo‘ylab umumiy sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 158 metr masofani o‘tib, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 285 metr masofada zovurni kesib o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘l bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°45'23,193", sharqiy uzoqlik 69°01'19,902").*

8-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 724 metr masofada R-24 avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 818 metr masofani o‘tib, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 412 metr masofani o‘tib, so‘ngra umumiy sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1069 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1293 metr masofani o‘tib, Pastki Xon ariq bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°46'20,660", sharqiy uzoqlik 69°03'58,234").*

9-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda “Pastki Xon” arig‘ining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1034 metr masofani o‘tib, keyin umumiy shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 848 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°47'06,431", sharqiy uzoqlik 69°03'20,058").*

10-nuqtadan chegara chizig‘i “Qorasuv” arig‘ining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 539 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 34 metr fasofada “Xonariq” arig‘ini kesib o‘tadi, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 629 metr masofani o‘tib, so‘ngra umumiy shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1083 metr masofani o‘tib, keyin ariqni kesib o‘tadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 389 metr masofani o‘tib, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha

burilishlarni hisobga olgan holda 1421 metr masofani o‘tib zovurga tutashadi, so‘ngra zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 225 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°47'52,897", sharqiy uzoqlik 69°03'26,241").*

11-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 75 metr masofani o‘tib, keyin umumiy shimoliy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 548 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib ariqqa tutashadi, so‘ng umumiy shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 361 metr masofani o‘tib, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 278 metr masofani o‘tib, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 274 metr masofada “Xon” kanalini kesib o‘tadi, so‘ng kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 405 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin yo‘ldan zovurga o‘tadi va zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 64 metr masofani o‘tib, so‘ngra zovurni kesib o‘tib qabriston chegarasiga tutashadi va qabriston chegarasi bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 247 metr masofada 4K767-avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°48'27,845", sharqiy uzoqlik 69°04'00,244").*

12-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan zovurga tutashadi va janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning o‘ng tomoni bilan 237 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi, so‘ng umumiy sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 664 metr masofani o‘tib zovurga tutashadi, keyin umumiy shimoliy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 255 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 106 metr masofani o‘tib, so‘ngra ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 406 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning janub tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 75 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 704 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°49'00,216", sharqiy uzoqlik 69°04'50,341").*

13-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan “Ot” arig‘iga tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 523 metr masofada ariqni kesib o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 466 metr masofada zovurni kesib o‘tib, so‘ng umumiy sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 175 metr masofani o‘tib, so‘ngra umumiy shimoliy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni

bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 627 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘l bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°49'40,252", sharqiy uzoqlik 69°04'37,139").*

14-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 75 metr masofani o‘tib, keyin yo‘lni kesib o‘tib zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 455 metr masofada zovurni kesib o‘tib, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 965 metr masofa zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°50'06,212", sharqiy uzoqlik 69°05'04,002").*

15-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 535 metr masofada zovurni kesib o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 213 metr masofani o‘tib, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 379 metr masofada o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°50'31,145", sharqiy uzoqlik 69°05'18,789").*

16-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 134 metr masofani o‘tib, keyin yo‘ldan zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1134 metr masofani o‘tib, so‘ng zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 803 metr masofada zovurni kesib o‘tib, so‘ngra umumiy sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 913 metr masofani o‘tib, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 62 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°51'31,743", sharqiy uzoqlik 69°05'26,067").*

17-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2609 metr masofani o‘tib avtomobil yo‘liga tutashadi va yo‘l bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°51'19,850", sharqiy uzoqlik 69°07'12,373").*

18-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tib umumiy sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1028 metr masofani o‘tib, beton ariq bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°51'19,233", sharqiy uzoqlik 69°07'55,458").*

19-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy yo‘nalishda beton ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 439 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik*

40°51'33,336", sharqiy uzoqlik 69°07'55,919").

20-nuqtadan chegara chizig‘i chegara to‘g‘ri chizig‘i orqali sharqiy yo‘nalishda 15 metr masofada beton ariqni kesib o‘tib zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 476 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°51'21,355", sharqiy uzoqlik 69°08'08,779").*

21-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1023 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 176 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°51'36,326", sharqiy uzoqlik 69°08'46,809").*

22-nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 457 metr masofada beton ariqni kesib o‘tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 49 metr masofani o‘tib, so‘ng ekin yer chegarasi bo‘ylab umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 664 metr fasofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°51'51,005", sharqiy uzoqlik 69°09'26,534").*

23-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 873 metr masofanda zovurni kesib o‘tib, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 213 metr masofani o‘tib, so‘ng zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 189 metr masofada zovurni kesib o‘tib, Toldibuloq zovur bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°52'07,700", sharqiy uzoqlik 69°09'55,022").*

24-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Toldibuloq zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1643 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 577 metr masofani o‘tib, Oqqo‘rg‘on, Bo‘ka va Piskent tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, zovur bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°52'03,155", sharqiy uzoqlik 69°11'23,690").*

B dan D gacha Piskent tumani yerlari bilan 25 - 45 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

25-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ekin yer chegarasi bo‘ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda 407 metr masofani o‘tib zovurga tutashadi, keyin zovurni kesib o‘tib ekin yer chegarasi bo‘ylab umumiy janubiy yo‘nalishda 447 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning

suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 236 metr masofani o‘tib, so‘ngra ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 504 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 582 metr masofani o‘tib, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 156 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°51'14,409", sharqiy uzoqlik 69°11'16,951").*

26-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 826 metr masofani o‘tib, keyin umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1017 metr masofani o‘tib, so‘ng umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1017 metr masofada R-18 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°50'59,520", sharqiy uzoqlik 69°12'51,083").*

27-nuqtadan chegara chizig‘i R-18 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda 2645 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°49'34,554", sharqiy uzoqlik 69°12'35,822").*

28-nuqtadan chegara chizig‘i R-18 avtomobil yo‘lidan qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 497 metr masofada A-373 avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi, keyin A-373 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 39 metr masofani o‘tib tomorqa chegarasiga tutashadi, so‘ng tomorqa devori chegarasi bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 332 metr masofani o‘tib Ot arig‘iga tutashadi, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 105 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°49'31,693", sharqiy uzoqlik 69°13'12,270").*

29-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Ot arig‘ining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 494 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 674 metr masofani o‘tib, so‘ngra umumiy sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1266 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°49'46,419", sharqiy uzoqlik 69°14'44,081").*

30-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 607 metr masofada zovurni kesib o‘tib, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-

g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 666 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°49'13,735", sharqiy uzoqlik 69°14'25,031").*

31-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1339 metr masofani o‘tib avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°49'14,324", sharqiy uzoqlik 69°15'20,445").*

32-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tib zovurga tutashadi va umumiy sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1149 metr masofani o‘tib, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 533 metr masofada “Gijgen” kanalini kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°49'05,669", sharqiy uzoqlik 69°15'53,621").*

33-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda “Gijgen” kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1173 metr masofani o‘tib, keyin kanalni kesib zovurga tutashadi va umumiy shimoliy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 664 metr masofani o‘tib, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 160 metr masofani o‘tib, keyin zovurni kesib o‘tib umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 262 metr masofani o‘tib, so‘ngra zovurdan ariqqa tutashadi va shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 236 metr masofani o‘tib zovurga tutashib, zovur bo‘yida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°49'48,195", sharqiy uzoqlik 69°16'45,406").*

34-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 254 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, keyin umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1084 metr masofani o‘tib, so‘ng zovurni kesib o‘tib shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 152 metr masofani o‘tib, so‘ngra umumiy sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 717 metr masofada zovurni kesib o‘tib, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 766 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°49'51,211", sharqiy uzoqlik 69°18'12,796").*

35-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 100 metr masofada

zovurni kesib o‘tib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1214 metr masofani o‘tib, so‘ng zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda 546 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi, so‘ngra janubiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 134 metr masofani o‘tib zovurga tutashadi, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 490 metr masofani o‘tib, so‘ng zovurni kesib o‘tib ariqqa tutashadi va umumiy janubiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 286 metr masofani o‘tib, so‘ngra ariqni kesib o‘tib ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 98 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 131 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°49'12,509", sharqiy uzoqlik 69°18'54,627").*

36-nuqtadan chegara chizig‘i ariqni kesib o‘tib ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 223 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 300 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 229 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi, so‘ngra yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 646 metr masofada ariqni kesib o‘tib, keyin sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 115 metr masofani o‘tib, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 938 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°48'35,038", sharqiy uzoqlik 69°18'02,355").*

37-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda 744 metr masofada zovurni kesib o‘tib ariqqa tutashadi, keyin umumiy janubiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 381 metr masofada ariqni kesib o‘tadi, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 240 metr masofada zovurni kesib o‘tadi, keyin umumiy janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 905 metr masofada zovurni kesib o‘tib ariqqa tutashadi, so‘ng umumiy janubiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 631 metr masofada “Toshkent” kanalini kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°47'13,204", sharqiy uzoqlik 69°17'48,208").*

38-nuqtadan chegara chizig‘i “Toshkent” kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 205 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 786 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi, so‘ng yo‘lning

sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 346 metr masofani o‘tib, so‘ngra yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 203 metr masofani o‘tib, keyin yo‘l va kanalni kesib o‘tib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 653 metr masofada kanalni kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°46'36,294", sharqiy uzoqlik 69°17'33,833").*

39-nuqtadan chegara chizig‘i kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 617 metr masofani o‘tib ekin yerga tutashadi, keyin ekin yer chegarasi bo‘ylab janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 762 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 918 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°45'48,216", sharqiy uzoqlik 69°17'54,465").*

40-nuqtadan chegara chizig‘i ariqdan kanalga tutashadi va shimoliy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 886 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1254 metr masofani o‘tib, so‘ng kanalni kesib o‘tib ekin yerga tutashadi va ekin yer chegarasi bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 302 metr masofani o‘tib kanalga tutashadi, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 167 metr masofani o‘tib, kanalni kesib o‘tib tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 111 metr masofada R-19 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'17,875", sharqiy uzoqlik 69°18'54,210").*

41-nuqtadan chegara chizig‘i R-19 avtomobil yo‘lidan tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 420 metr masofada “Jar ariq” arig‘ini kesib o‘tadi, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 409 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi, keyin umumiy sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1058 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°38'14,794", sharqiy uzoqlik 69°03'41,167").*

42-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 538 metr masofada ariqni kesib o‘tib, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 789 metr masofani o‘tib, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 376 metr masofada

zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°45'58,124", sharqiy uzoqlik 69°19'50,703").*

43-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 757 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1122 metr masofada zovurni kesib o‘tib, so‘ng shimoliy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 62 metr masofada o‘tib ariq bo‘yida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°45'10,933", sharqiy uzoqlik 69°19'46,732").*

44-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 755 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 205 metr masofani o‘tib, Tojikiston Respublikasi hamda Piskent, Bo‘ka tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, Toshkent kanali bo‘yida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°45'33,005", sharqiy uzoqlik 69°20'56,534").*

D dan E gacha Tojikiston Respublikasi yerlari bilan 45-46 nuqtalar oralig‘idagi chegara tavsifi quyidagicha:

45-nuqtadan 46-nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i bo‘yicha olindi.*(shimoliy kenglik 40°45'26,467", sharqiy uzoqlik 69°21'28,808").*

E dan F gacha Bekobod tumani yerlari bilan 46 - 56 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

46-nuqtadan chegara chizig‘i Toshkent kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 569 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 603 metr masofani o‘tib, so‘ng janubiy yo‘nalishda 283 metr, so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 199 metr masofada 4K792-avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°42'43,830", sharqiy uzoqlik 69°20'45,985").*

47-nuqtadan chegara chizig‘i Toshkent kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 367 metr, keyin umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1267 metr masofani o‘tib, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 960 metr, so‘ngra umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 802 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°42'20,726", sharqiy uzoqlik 69°19'56,323").*

48-nuqtadan chegara chizig‘i Toshkent kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 946 metr masofani o‘tib,

keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 626 metr masofani o‘tib, so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 512 metr masofani o‘tib, keyin umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1888 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°41'19,318", sharqiy uzoqlik 69°19'38,149").*

49-nuqtadan chegara chizig‘i Toshkent kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1159 metr masofani o‘tib avtomobil yo‘liga tutashadi, keyin avtomobil yo‘lini kesib o‘tib Sovxozniy-2 kanaliga otadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 619 metr masofani o‘tib, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 1040 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°39'46,031", sharqiy uzoqlik 69°18'49,407").*

50-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lini kesib kesib o‘tib kanalga o‘tadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1590 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 382 metr masofani o‘tib, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-jannubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 115 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 315 metr masofani o‘tadi, so‘ng to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 27 metr masofada dala tuproq yo‘lini, zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°39'13,988", sharqiy uzoqlik 69°18'06,350").*

51-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 265 metr masofada avtomobil yo‘liga o‘tadi, keyin avtomobil yo‘lini kesib o‘tib dala tuproq yo‘liga o‘tib, yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 260 metr, keyin umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 830 metr masofada zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 986 metr masofani o‘tadi, so‘ng zovurdan dala tuproq yo‘liga o‘tib, yo‘lning sharq tomoni bilan umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 58 metr masofada dala tuproq yo‘lni kesib o‘tib, zovurga tutashadi keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2931 metr, so‘ng umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 4025 metr masofani o‘tib, R-20 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°38'12,185", sharqiy uzoqlik 69°18'30,598").*

52-nuqtadan chegara chizig‘i R-20 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5350 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda

1837 metr, so‘ng umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1635 metr masofani o‘tib, keyin chegara quruq chizig‘i orqali g‘arbiy yo‘nalishda 171 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, yo‘l bo‘yida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°37'5,492", sharqiy uzoqlik 69°12'43,652").*

53-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 938 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali g‘arbiy yo‘nalishda 10 metr masofada yo‘lni kesib o‘tib zovurga tutashadi va shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 281 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 21 metr, so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 220 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi, so‘ngra tomorqa chegarasi bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 136 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, so‘ng dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 75 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va tomorqa chegarasiga o‘tadi, so‘ngra tomorqa chegarasi bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 118 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 135 metr, so‘ng dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 69 metr, so‘ngra yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 43 metr, so‘ng yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 64 metr, keyin to‘g‘ri chiziq orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 63 metr masofani o‘tib, Chiyalisoy soyi bo‘yida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°36'06,998", sharqiy uzoqlik 69°07'03,901").*

54-nuqtadan chegara chizig‘i Chiyalisoy soysining suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 404 metr masofani o‘tib botqoq chegarasiga tutashadi va botqoqlik chegarasi bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1377 metr masofani o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 56 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 335 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°36'55,136", sharqiy uzoqlik 69°06'24,748").*

55-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 1901 metr masofani o‘tib, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 950 metr, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 26 metr masofada quruq soyga tutashadi va quruq soy bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 524 metr, so‘ngra to‘g‘ri chiziq orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda yo‘nalishda 106 metr masofani o‘tib, Sirdaryo viloyati hamda Bekobod, Bo‘ka tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, Sirdaryo daryosi o‘zanida joylashgan 56-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°37'28,151", sharqiy uzoqlik*

69°05'42,958").


F dan A gacha Sirdaryo viloyati yerlari bilan 56 - 1 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

56-nuqtadan chegara chizig‘i Sirdaryo daryosining o‘zani va suv oqimi bo‘ylab umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 7005 metr masofani o‘tib, keyin umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2920 metr masofani o‘tib, so‘ngra umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 4154 metr masofani o‘tib, Sirdaryo daryosi o‘zanida joylashgan boshlang‘ich 1-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°39'57,505", sharqiy uzoqlik 68°57'43,512").*

Xalq deputatlari Bo’ka tumani
Kengashining
2024-yil 26-avgustdagi
VI-97-87-10-137-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Toshkent viloyati Bo'ka tumani ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik

CHIZMASI



Shartli belgilar:

Bo'ka tumani ma'muriy-hududiy chegara chizig'i

1 *Bo'ka tumani ma'muriy-hududiy chegarasining burilish nuqtasi va raqami*